



UDK: 271.222(510)"06/13"

Nozima AGZAMOVA,

PhD student of the UNESCO Department for Religious Studies, International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: nozimaagzamova033@gmail.com

Based on the review by Associate Professor M. Abdupattayev of the International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

XITOIDAGI DASTLABKI XIRISTIAN JAMOA: NESTORIANLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola Xitoydagi nestorian xristianlari tarixini, xususan, ularning Tan (635-845) va Yuan (XIII-XIV asrlar) sulolalari davridagi mavjudligini ko'rib chiqadi. Marko Poloning sayohatnomasi Ipak yo'li bo'ylab, Xitoyning shimoli-g'arbiy va janubi-sharqidagi (Qoshg'ar, Ganchjou, Pekin, Xanchjou kabi) savdo shaharlarida yashagan nestorian jamoalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Arxeologik topilmalar ham bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Maqolada ikki davr orasidagi 300 yillik bo'shliq va boshqa xristian yo'nalishlari (yakobitlar, melkitlar) haqidagi ma'lumotlar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sharqiy cherkov, Sian yodgorligi, Marko Polo, Xubilayxon, Suriya xristianligi, Tang va Yuan sulolasi, nestorianlar, yakobitlar.

THE EARLIEST CHRISTIAN COMMUNITY IN CHINA: THE NESTORIANS

Annotation

This article examines the history of Nestorian Christians in China, particularly their presence during the Tang (635–845) and Yuan (13th–14th centuries) dynasties. Marco Polo's travel account provides detailed information about Nestorian communities living in commercial cities along the Silk Road, including those in northwestern and southeastern China (such as Kashgar, Ganzhou, Beijing, and Hangzhou). Archaeological findings also confirm these reports. The article additionally discusses the 300-year gap between the two periods and provides information on other Christian denominations (Jacobites and Melkites).

Key words: Church of the East, Xi'an Stele, Marco Polo, Kublai Khan, Syrian Christianity, Tang and Yuan dynasties, Nestorians, Jacobites.

ПЕРВАЯ ХРИСТИАНСКАЯ ОБЩИНА В КИТАЕ: НЕСТОРИАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается история несторианских христиан в Китае, в частности их присутствие в период династий Тан (635–845) и Юань (XIII–XIV вв.). Путевые записи Марко Поло содержат подробные сведения о несторианских общинах, проживавших в торговых городах вдоль Шелкового пути – таких как Кашгар, Ганьчжоу, Пекин и Ханчжоу. Археологические находки также подтверждают эти данные. В статье рассматривается и трёхсотлетний разрыв между двумя периодами, а также приводятся сведения о других христианских течениях (яковитах и мелькитах).

Ключевые слова: Восточная церковь, Сианьский памятник, Марко Поло, Хубилай-хан, сирийское христианство, династии Тан и Юань, несториане, яковиты.

Kirish. Xristianlikning Xitoyga ilk rasmiy kirib kelishi 635-yilga, Tang sulolasi davriga to'g'ri keladi. Shu yili Sosoniylar Eronidan kelgan Sharqiy Cherkov (nestorianlik) vakili Aluoben yepiskopi Chang'anga yetib kelib, Tang saroyi tomonidan rasmiy kutib olingan. Bu voqea 781-yilga oid Sian (nestorian) yodgorligida qayd etilgan bo'lib, Xitoyda nestorianlik mavjudligini tasdiqlovchi eng qadimgi hujjat hisoblanadi. Yodgorlikdagi ma'lumotlar Aluoben va boshqa ruhoniylarning kelib chiqishi Erondagi Sharqiy Cherkovga mansub ekanini ko'rsatadi. Ushbu cherkov Suriya xristianligining sharqiy shakli bo'lib, Rim va Vizantiyadan mustaqil rivojlangan. Tang davrida suriyalik rohiblar va savdogarlar Ipak yo'li orqali xristianlikning Xitoyda tarqalishiga hissa qo'shdilar, natijada cherkov va monastirlar qurildi. Bu din imperatorlar qo'llab-quvvatlovi ostida taxminan 210 yil davomida rivojlandi, ammo 845-yilda imperator Vuzong farmoni bilan chet ellik dinlar taqiqlanib, bu jarayon to'xtatildi. Xristianlikning Xitoyda qayta tiklanishi faqat Yuan sulolasi davrida yuz berdi.

Asosiy qism. Sharqiy Cherkov Xitoydagi o'z missiyalari haqida ko'p ma'lumotga ega emas. Biroq arxeologik topilmalar, shuningdek xitoy va noxitoy yozma manbalari suriya xristianligining Xitoyda ikkita tarixiy davrda tarqalganligini tasdiqlaydi: ya'ni Tang sulolasi (618–907) va Yuan sulolasi (1279–1368) davrlari. Bu ikki alohida davrga

oid manbalar o'zaro mazmun va shakl jihatdan farqlanadi. Tang davridagi suriya xristianligining xronologiyasini asosan VIII asrga oid Sian toshi asosida tiklash mumkin. Bu ma'lumotlar IX asrga oid Luoyang toshi va XX asr boshlarida Dunxuanga topilgan nestorianlikka oid qo'lyozmalar bilan to'ldiriladi.

Mo'g'ullar davriga oid manbalar Tang davriga qaraganda ko'proq, ammo ular parchali holatda. Ushbu davrga oid manbalarga quyidagilar kiradi:

- yuzlab kichik arxeologik topilmalar, jumladan qisqa qabr yozuvlari (epitafiyalar);
- Xitoy manbalarida "nestorianlar" haqida qisqa eslatmalar (masalan, Yuan shi – "Yuan sulolasi tarixi");
- Suriya manbalari (masalan, Rabban Sauma tarixi);
- Fors manbalari (masalan, Rashid ad-Dinning asarlari, 1247–1318 yillar);
- O'rta asr Yevropa sayohatchilari (masalan, Marko Polo, fransiskanlar va boshqalar). Shunga qaramay, Xitoydagi suriya xristianligi tarixi to'g'risidagi bilimlarimizda hanuz bo'shliqlar mavjud.

Tan va Yuan sulolalari orasida deyarli 300 yillik farq bor, va shu davr mobaynida nestorianlik yoki Xitoy rasmiy manbalari orqali xristianlikka oid izlar deyarli qayd etilmagan. Besh sulola va Sun imperiyasi (X–XII asrlar) davridagi xitoy

tarixiy manbalari nestorianlik bilan bog'liq ma'lumotlarga nisbatan sukunat saqlaydi.

X asr oxiriga kelib, Suriya cherkovlari Xitoyda deyarli yo'q bo'lib ketgan. Shu davrga oid bir oz ma'lumotni Ibn al-Nadim [3] o'z asarida keltiradi. Uning yozishicha, u 980-yili Bag'doddagi cherkov ortidagi Dar al-Rum nomli joyda Najronlik ruhoniylar bilan uchrashgan. Ushbu ruhoniylar Ibn al-Nadimga aytishicha, u bir necha yil oldin nestorian katolikosi tomonidan Xitoyga yuborilgan olti xristian shaxsdan biri bo'lgan. Ulardan faqat ikki nafari, jumladan o'zi, olti yildan so'ng Bag'dodga qaytgan. Monaxning gapiga ko'ra, Xitoyda avval xristianlar bo'lgan, lekin turli sabablar tufayli ular yo'qolib ketgan, va butun mamlakatda faqat birgina xristian qolgan, ular qurgan cherkov esa vayron qilingan ekan. Monaxning so'zlariga ko'ra, u Xitoyga X asr oxirida yuborilgan, shunday ekan, uning bayonotiga ko'ra, Sun sulolasi davrida ham Xitoyda xristianlar va cherkov mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin.

Marko Polo "Dunyo xilma-xilligi kitobi"da nafaqat sayohat yo'llarini bayon qilgan, balki o'zi tashrif buyurgan shaharlardagi diniy jamoalar, xususan, Ipak yo'li bo'ylab joylashgan nestorian xristian diasporalari haqida ham ma'lumot bergan. Uning aniq kuzatuvlari tufayli XIII asrdagi Xitoydagi xristian jamoalari xaritada joylashtirish mumkin bo'ladi.

Tarixiy yozma manbalar hamda so'nggi yillardagi arxeologik topilmalar asosida, XIII asrning ikkinchi yarmida Xitoyning shimoli-g'arbidagi Tangut yerlari va janubiy-sharqiy mintaqalarida xristian diasporasi mavjud bo'lganini ko'rsatish mumkin. Bu borada Marko Poloning asari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u Ipak yo'lida joylashgan xristian jamoalarning toponimik ma'lumotlarini beradi, xususan, Tangut hududida.

Muhokama. Marko Poloning tasvirlariga ko'ra, XIII asrda Xitoyning shimoli-g'arbiy hududlarida, ayniqsa Tangutlar hukmronlik qilgan o'lkalarda xristian diasporalari mavjud bo'lgan. Bu ma'lumotlar Tan sulolasidan keyin ham Xitoyda xristian jamoalar yashashda davom etganini ko'rsatadi. Polo o'z sayohatnomasida Qoshg'ar, Yarkan, Uyg'uriston, Shachjou, Gingin Talas, Suchjou, Ganchjou, Ejina, Karakorum, Ergiul, Sinjou, Kalashian, Tenduk va Kambaluk kabi shaharlarda xristianlar, asosan nestorianlar yashaganini qayd etadi.

Qoshg'arda asosan musulmonlar istiqomat qilgan bo'lsa-da, nestorian turkiy xristianlar o'z cherkovlariga ega bo'lgan [2], ayrim manbalarda esa yunon marosimiga amal qiluvchi xristianlar ham tilga olinadi [7]. XII asrga kelib bu hududda mitropolit darajasidagi nestorian ruhoniylar faoliyat yuritgani qayd etilgan [4]. Yarkan shahrida musulmonlar bilan birga nestorianlar va yakobitlar ham yashagan bo'lib, bu G'arbiy suriyalik xristian an'analarning ham Xitoyga kirib kelganini ko'rsatadi [5].

Lotincha "Z" manuskriptida Uyg'uriston katta viloyat sifatida tasvirlanib, Turfan (Carahoço) shahrining diniy xilma-xilligi – butparastlar, nestorianlar va musulmonlar mavjudligi alohida qayd etiladi. Shachjou va Gingin Talas hududlarida ham buddaviylar, musulmonlar va nestorian xristianlar birga yashagan [7]. Ganchjou esa uchta yirik xristian cherkovi mavjud bo'lgan muhim savdo markazi sifatida tasvirlanadi [7]. Yuan davrida bu viloyatda "Xoch ibodatxonasi" mavjud bo'lib, Xubilayxonning nestorian e'tiqodidagi onasi Sorkaktani Bekining dafn marosimi shu yerda o'tkazilgan.

Kalashian (Egngaia) Tangut viloyatidagi muhim hudud bo'lib, poytaxtida uchta nestorian cherkovi mavjud bo'lgan [7]. Tenduk (bugungi Ichki Mo'g'uliston) viloyatida esa Ongut qabilasi yashagan bo'lib, viloyat hukmdori xristian bo'lgan. Marko Polo Tendukdan Katay tomon yo'lida ham ko'plab nestorian jamoalarga duch kelgan.

Yuan sulolasi poytaxti Kambaluk (Xonbaliq) diniy bag'rikenglik markazi sifatida tasvirlanadi. Bu yerda xristianlar, musulmonlar va buddaviylar yashagan, Xubilayxon Pasxa va Milod bayramlarini nishonlab, Injilni hurmat bilan e'zozlagan hamda xristian ramzlarini qo'llab-quvvatlagan [7]. Marko Polo ma'lumotlariga ko'ra, mo'g'ul xonlar sulolasi qadimdan nestorianlik bilan aloqador bo'lib, Xubilayxon Rim papasi va xristian ta'limotiga katta qiziqish bildirgan [6].

Keyingi shahar – Katsionfu (Cacionfu), bu hozirgi Shanxi provinsiyasidagi qarashli hududga to'g'ri keladi. U Sariq daryo (Xuanxe)ning o'rta oqimida joylashgan bo'lib, Marko Poloning tavsifida bu daryo "Caramoran", ya'ni "Qora suv" deb ataladi. Shu sababli, shaharning xitoycha nomi Hezhongfu - "daryo o'rtasidagi shahar" degan ma'noni anglatadi. "Z" manuskriptda bu shaharda nestorianlar va musulmonlar yashaganligi qayd etilgan [7:263].

Kuensenfu (Quengianfu) shahrida tut daraxtlari o'sar, shu sababli bu hududda ipak ishlab chiqaruvchi savdogar shaharlar ko'p bo'lgan. Manbalarda aytilishicha, bu shaharda turkiy nestorianlar hamda musulmonlar yashagan. Tarixan bu hudud mustaqil qirollik bo'lib, Mangalay nomli hukmdor tomonidan boshqarilgan.

Paugin (Paughin) shahri Marko Poloning yozishicha, Mangi viloyatida (ya'ni Janubi-sharqiy Xitoyda) joylashgan bo'lgan. U bugungi kunda Xitoyning Jiangsu provinsiyasidagi Yanchjou shahri tarkibiga kiruvchi Baoying tumaniga to'g'ri keladi. "Yuan sulolasi davrida bu yerda nestorianlar savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar va ularda cherkov mavjud bo'lgan", - bu haqda Marko Polo o'z asarida xabar beradi [7]. Biroq Marko Polo o'z asarida Yanchjou shahrining o'zida xristianlar yashaganini aytmagan. U faqat shu "ulug' shaharni buyuk xonning buyrug'i bilan uch yil boshqarganini" ta'kidlagan. Shunga qaramay, 1981-yilda Yanchjou shahrida xitoycha, turkiy va suryoniy tillarda yozilgan nestorian ayol Yelizaveta nomiga bag'ishlangan toshbitik (epitafiya) topilgan. Demak, Paugin Yanchjou atrofida xristianlar jamoasi mavjud bo'lgan joylardan biri bo'lib, Marko Poloning xabarini arxeologik topilmalar tasdiqlaydi.

Sinhyanfu "Cinghianfu" – bu hozirgi Xitoyning Jiangsu provinsiyasidagi Chjenzyan shahridir. U Yanchjoudan janubda, Yanszi daryosining janubiy qirg'og'ida joylashgan bo'lib, o'sha davrda katta savdo markazi hisoblangan. Marko Poloning ma'lumotiga ko'ra, 1278-yilda bu shaharda nestorianlarga tegishli ikkita cherkov mavjud bo'lgan [7:323]. U, shuningdek, Mar Sargis ismli bir baron haqida yozadi, u nestorian bo'lgan va Chjenzyanfuning hokimi sifatida xizmat qilgan. Marko Poloning yozishicha, Mar Sargis shu shaharda uch yil yashab, o'sha ikki cherkovni qurdirdigan. Bu shaxs XIV asrga oid mahalliy manba, ya'ni "Chjenzyan yozuvlari" (1330–1333) asarida ham tilga olinadi. Ushbu gazeta faqat Mar Sargisning Chjenzyanda oltita monastir va Hanchjouda bitta monastir qurdirdigani haqida emas, balki Chjenzyandagi xristianlar soni to'g'risida ham ma'lumot beradi.

Chiandzu (Ciangu) hozirgi zamondagi Chanchjou shahriga to'g'ri keladi. Marco Polo ma'lumotlariga ko'ra, mo'g'ullar Chanchjou shahrini egallash uchun alan jangchilarini yuborgan. Sayyoh ushbu atamani alanlarning Vizantiya pravoslav an'anasiga mansubligi bilan bog'laydi.

Kuinsay (Quinsay) – o'rta asr sayyohlari orasida Kuinsay "yer yuzidagi jannat shahri" sifatida mashhur bo'lgan. Marko Polo uni yirik savdo va hunarmandchilik markazi deb tasvirlaydi. U shuningdek u yerda nestorian cherkovini ko'rganini yozgan [7].

Mar Sargis XIII asr oxirida monastirlar qurishni boshlagan bo'lib, uning yetti monastiridan biri Hanchjouda joylashgan "Yangyi humula Dapuxing si" edi. Marko Polo Hanchjouda ko'rgan "cherkov" aynan shu monastir bo'lganmi yoki yo'qligi aniq emas.

Fudzyu haqidagi "Z" manuskriptida xristianlarga bag'ishlangan bob mavjud. Marko Polo bu yerda Zabur kitoblariga ega bo'lgan, ammo diniy ta'limdan uzoqlashgan jamoani tilga oladi. Ularning uchta tasviri "yetmish havoriy"dan uchtasini ifodalashi aytiladi, biroq Pelliot bu jamoani aslida manixeylar bo'lgan, deb hisoblaydi [7]. Polo ma'lumotiga ko'ra, Xitoyning janubi-sharqida joylashgan Mangi viloyatlarida yuz minglab xonadon xristian qoidalariga amal qilgan.

1274-yilda Yuan sulolasi tarkibiga kirgan Karachan (Yunnan) hududiga Markaziy Osiyodan ko'chmanchilar kelib joylashgan bo'lib, Marko Polo bu yerda musulmonlar va nestorianlarni uchratganini qayd etadi.

Nayan qo'zg'oloni tasvirida Marko Polo Nayan suvga cho'mdirilgan xristian bo'lib, jangda xochli bayroq ko'targanini aytadi. Biroq u mag'lub etilib qatl qilinadi, askarlari esa tirik qoldiriladi. Xubilayxon Nayanning mag'lubiyatini uning xiyonati bilan izohlaydi va xochni munosib ramz sifatida tilga oladi (7).

Umuman olganda, Marko Poloning Ipak yo'li bo'ylab sayohati XIII asrda nestorianlarning Mesopotamiya, Markaziy Osiyo [8], Xitoy va Hindistongacha yoyilgan keng geografik tarmog'ini ko'rsatadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand Sharqiy Cherkov missionerligi uchun muhim markaz bo'lib, bu yerda xristianlar va musulmonlar birga yashagan. Polo shuningdek Armaniston va Gruziyadagi xristian jamoalar haqida ham ma'lumot beradi.

Mesopotamiya Sharqiy va G'arbiy Suriya cherkovlari uchun markaz bo'lib xizmat qilgan. XIII asrda Marko Polo Mosul shahrida ko'plab nestorianlar, yakobitlar va arman xristianlarining yashashini qayd etadi [6]. Nestorianlar va yakobitlar lotin cherkovi (katolik) tomonidan bid'atchi deb hisoblangan. Ularning patriarxi arxiyepiskoplar, yepiskoplar,

abbalar, ruhoniylar tayinlab, ularni Hindiston, Xitoy, Bag'dod va xristianlar yashagan boshqa hududlarga missionerlikka yuborgan.

Marko Poloning tasvirlari XIII–XIV asrlarda Yaqin Sharq va Hind okeani hududlaridagi diniy rang-baranglikni aks ettiradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Mosul atrofida nestorian, yakobit xristianlari va musulmonlar birga yashagan bo'lib, bu Sharqiy Suriya an'anasidagi xristianlikning keng tarqalganini ko'rsatadi. Bag'dodning ilmiy markaz sifatida tilga olinishi uni nestorian cherkovi markazi bilan bog'laydi. Tabriz shahridagi ko'plab xristian jamoalar esa Eronning shimoli-g'arbida turli xristian an'analari mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Hind okeani bo'yidagi Kolam shahrida uchragan Malabar xristianlari esa Suriya an'anasidagi qadimiy jamoa bo'lib, Marko Polo ularning XIII asrdagi mavjudligini tasdiqlagan muhim manbalardan biridir.

Xulosa. Marko Polo Ipak yo'li bo'ylab sayohati davomida diniy jamoalar, ayniqsa nestorian xristianlari haqida muntazam qaydlar qoldirgan. Bu esa XIII asrda Mesopotamiyadan to Markaziy Osiyo va Xitoygacha bo'lgan hududlarda xristianlikning izchil tarqalganini ko'rsatadi. Uning ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki ushbu jamoalar butkul yo'q bo'lib ketmagan, aksincha, mo'g'ullar hukmronligi davrida Ipak yo'li bo'ylab faoliyatini davom ettirgan [5].

Ayniqsa Yuan sulolasi davridagi Xitoy Marko Polo tasvirlarida nestorian jamoalari eng serqatlam va eng yaxshi hujjatlashtirilgan makonlardan biridir. Bu ma'lumotlar boshqa mustaqil manbalar bilan ham tasdiqlanadi. Masalan, 1254-yilda mo'g'ul poytaxti Karakorumba borgan fransiskan rohib Vilgelm de Rubruk Markaziy Osiyodan Katai (Shimoliy Xitoy) tomon bo'lgan hududlarda nestorianlar, musulmonlar va boshqa diniy guruhlarning birga yashaganini qayd etgan.

ADABIYOTLAR

1. Baum, Wilhelm; Winkler, Dietmar W. (2003). *The Church of the East: A Concise History*. London: RoutledgeCurzon.
2. Boivin, Jeanne-Marie; Harf-Lancner, Laurence; Mathey-Maille, Laurence (eds.). (2003). *Le devisement du monde, Tome II: Traversée de l'Afghanistan et entrée en Chine*. Genève: Droz.
3. Dodge, Bayard (ed.). (1970). *The Fihrist of Ibn al-Nadim: A Tenth-Century Survey of Muslim Culture (2 vols.)*. New York: Columbia University Press.
4. Fiey, Jean Maurice (1993). *Pour un Oriens Christianus Novus: Répertoire des Diocèses Syriaques Orientaux et Occidentaux*. Beirut: Franz Steiner Verlag.
5. Li, Tang (2024). *Syriac Christianity in China: Introduction*. In: *Marco Polo Research: Past, Present, Future*. Tübingen: Tübingen Library Publishing.
6. Marco Polo (2005). *Kniga o raznoobrazii mira*. Moscow: Eksmo.
7. Moule, Arthur C.; Pelliot, Paul (eds.). (1938). *Marco Polo: The Description of the World (2 vols.)*. London: George Routledge & Sons.
8. Nematullo Mukhamedov & Nurullo Turambetov (2021). *The origins of religious tolerance in Central Asia*. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 10(12), 68–73. <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/105>